



# ISSUE 2

AKADEMIC JOURNAL  
OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)  
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

MARCH 2024

## **ESHITISHDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARIDA TABIATGA MUHABBAT HISSINI TARBIYALASH VA UNING SAMARADORLIGI**

<sup>1</sup>Kobilova Shaxnoza Xudayshukurovna, <sup>2</sup>Abdullayeva Sarvinoz Ne'mat qizi

<sup>1</sup>Chirchiq davlat pedagogika universiteti Pedagogika fakulteti “Maxsus pedagogika” kafedrasи katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)

<sup>2</sup>2-bosqich 23/2 guruh talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarni tabiatga bo‘lgan munosabatini sipmatik yondashuvga muvofiqlashtirish hamda tabiat “bag‘rida” ko‘proq bo‘lishini ta’minalash, ularni ruhan tetiklashtirib, o‘qish va mehnat qobiliyatini oshiradi, faoliyati uyg‘unligini ta’minalash bayon etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Ta’limiy va tarbiyaviy ishlar, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalar, ta’limiy ishlar, malakalar, emotsiyal irodaviy sifatlar, tabiat, ijtimoiy tarbiya, psixologik, pedagogik-psixologik usul.

**Аннотация:** В данной статье корректируется отношение слабослышащих детей к природе на участливый подход и на то, чтобы они больше находились «на лоне» природы, констатируется обеспечение мукой.

**Ключевые слова:** Учебно-воспитательная работа, дети с нарушением слуха, воспитательная работа, умения, эмоционально-волевые качества, характер, социальное воспитание, психологический, педагогико-психологический метод.

**Abstract:** In this article, the attitude of hearing-impaired children to nature is adjusted to a sympathetic approach and to ensure that they are more "in the bosom" of nature. provision offlour is stated.

**Key words:** Educational and educational work, children with hearing impairment, educational work, skills, emotional volitional qualities, nature, social education, psychological, pedagogical-psychological method.

Eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga jonli va jonsiz tabiat xaqida bilimlar berilar ekan, albatta tirik organizmlarning yashash sharoiti, ularning o‘zi yashab turgan muhit bilan o‘zaro murakkab munosabati asosida vujudga keladigan qonuniyatlarni o‘rgatish maqsadga muvofiq

Shu nuqtai nazardan, maxsus maktabda eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga tabiatshunoslik fanini o‘qitishda „O‘simliklar ekologiyasi (6 sinf)”, “Hayvonot olami ekologiyasi (7 sinf)” bo‘limlarida o‘simliklar va hayvonat olamining o‘ziga xos xususiyatlari, zootexnik, sanitari-gigiena qoidalar pedagogik texnologiyalar asosida amalga oshirilishi taqozo etiladi.

Shuningdek, jonsiz tabiat bo‘limlarini o‘zlashtirishda, tuproq mahsulorligini oshirish borasida mineral va mahalliy o‘g‘itlardan maqsadli foydalanish orqali tuproq

strukturasini o'zgartirish hamda samarali natijalarga erishish yuzasidan zaruriy bilim va ma'lumotlar ilg'or pedagogik metodikalar asosida amalga oshirilishi davr talabidir.

Mazkur pedagogik yondashuv eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda tabiatga nisbatan quyidagi sifatlari shakllantirishgan xizmat qiladi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lish hissini qaror toptiradi;

- tabiatni sevish hamda undan zavqlanish ko'nikmasini shakllantiradi va tarbiyalaydi;

- jonli va jonsiz tabiatning rivojlnish qonuniyatlari yuzasidan aniq ma'lumotlarga ega bo'ladi;

- tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni anglaydi hamda o'zlar uchun zarur bo'lgan bilimlarni o'zlashtiradi;

- eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarda ekologik madaniyatni tarbiyalaydi;

- atrof-muhitga sog'lom munosabatda bo'lish ko'nikmasini shakllantiradi;

- mazkur toifadagi bolalarda ekologik madaniyatni qaror toptirish negizida o'ziga va ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshiradi;

- tabiatni sevish orqali Vatanni sevish hamda vatanparvarlik fazilatini o'z shaxsida qaror toptiadi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarni tabiatga bo'lgan munosabatini sipmatik yondashuvga muvofiqlashtirish hamda tabiat "bag'rida" ko'proq bo'lishini ta'minlash, ularni ruhan tetiklashtirib, o'qish va mehnat qobiliyatini oshiradi, faoliyati uyg'unligini ta'minlaydi.

Eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning ekologik madaniyatini oshirish va tarbiyalash uchun zarur bilimlarni berish, quyidagi kompetentlikni shakllantiradi:

- eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar maxsus ekologik bilimga ega bo'ladi;

- jonli tabiatga qanday munosabatda bo'lish yuzasidan muayyan malakaga ega bo'lib, boshqalarga zaruriy tavsiyalar berish ko'nikmasini shakllantiradi;

- jonli tabiatga nisbatan nojuya harakatlar ekologik o'zgarishlarni keltirib chiqarishi haqidagi tushunchalarga ega bo'ladi hamda oldindan ko'ra bilish qobiliyatini tarbiyalaydi;

- ekologik madaniyat orqali tabiatni asrab avaylash inosniyatni sog'lig'ini saqlash ekanligi haqidagi bilim va tushunchalarni singdiradi;

- nuqson va ma'lum travmalar bilan tug'iladigan bolalar insoniyatning tabiatga nisbatan nosog'lom munosabatining mahsuli ekanligini targ'ib qilish ko'nikmasini shakllantiradi;

- jamiyatdagi sog'lom insonlarni tabiatni sevish, uni asrash, shukronalik hissini o'zlarida qaror toptirish, tabiat «In'omlari»dan to'g'ri foydalanish kabi tushunchalarni hayotiy faoliyat turiga aylantirish yuzasidan tashviqot olib borishda, o'z faoliyatidagi mavjud nuqsonlarni boshqalarda bo'lmasligi hamda kamaytirish yuzasidan tashviqotlar olib borish ko'nikmasini shakllantiradi.

Tabiatni muhofaza qilish va ekologik tarbiya masalasi pedagogika va psixologiya masalalarining eng muhim tarkibiy qismidir. Shu nuqtai nazardan, eshitishda nuqsoni bo'lgan o'quvchilarga tabiat qonunlariga to'la rioya etish, Vatan, xalq, davlat va kelajak

avlod oldidagi burch tuyg‘usini shakllantirish orqali ularda ekologik ong va tafakkurni shakllantirish mumkin.

O‘quvchilar shaxsida shakllangan ekologik ong va tafakkur axloqiy tarbiyaning ajralmas qismi bo‘lib, ularda ekologik dunyoqarashni hosil qiladi hamda tabiatni dilektik tushunishga xizmat qiladi. Shuningdek, maxsus mактабда eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarga tabiatshunoslik fanini o‘qitishdan maqsad, ularda kuzatiladigan psixofizik kamchiliklarni bartaraf etishga, bilish faoliyatidagi idrok, xotira, tafakkur, nutq malakalarini rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, o‘zini o‘zi korreksiyalab borish imkoniyatini yuzaga keltiradi.


Mazkur jarayon, pedagogik nuqtai nazardan, ta’limiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda yuqori samaradorlikka olib keladi. Buning natijasida, eshitishda nuqsoni bo‘lgan o‘quvchilarni bilish faoliyati rivojlantirilib, barcha ta’limiy ishlar, malakalar, emotsiyonal irodaviy sifatlar barqarorlashtiriladi hamda jismoniy kamchiliklar bilan bog‘liq muammolardan ta’sirlanish va stresslar minimallashtiriladi.

Xulosa qilib aytganda, eshitishda nuqsoni bo‘lgan bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish hamda ular ongida qaror toptirish jismoniy va ruhiy taraqqiyotdagi kamchiliklarni pedagogik-psixologik usul va chora-tadbirlar yordamida kamaytirish imkoniyatini oshirib, o‘zlarini jamiyatning faol a’zosiga aylantirishga xizmat qiladi.

Ularda, tabiatga bo‘lgan qiziqishning ortishi, go‘zallikni his qilish va go‘zallik bilan yashash tushnchasini shakllantirib, motivatsion xarakterga ega bo‘lgan emotsiyonal tuyg‘ularni o‘z shaxsida qaror toptiradi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Kodirova, F. U., & Kobilova, Sh. X. (2021). Povishenie kachestva inklyuzivnogo obrazovaniya v usloviyakh pedagogicheskogo innovatsionnogo klastera. Academic research in educational sciences, 2(CSPI conference 1), 109-115.
2. Sh.X.Kobilova Inklyuziv ta’lim jarayoniga ilmiy pedagogik yondashuv.Pedagogik ta’lim, innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish va uni amaliyotga joriy etish. Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiysi 2023-yil, 15-iyun. - B.566-568.
3. Sh.X.Kobilova. Introducing the theory of the "Inclusive Diffusion" approach to inclusive education and its prospects. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities Volume 20, July , 2023 –B. 24-27.
4. Sh.X.Kobilova.Inklyuziv ta’limda “To‘siksiz muhit” va uni shakllantirish imkoniyatlari.Diversity Research: Journal of analysis and trends Volume 1, ISSN (E): 2810-6393. Issue 4, July 2023. –B. 1-5
5. Sh.X.Kobilova.Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarda xavfsiz hayot ko‘nikmasini shakllantirish.«Maxsus pedagogika: muaommo va yechimlar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari 21-aprel 2023-yil.- B. 141-14.
6. Zikeyev A.G. Formirovanie i korreksiya rechevix navikov i umeniy v upotreblenii slojnosochinennix predljeniy mladshimi shkolnikami s narusheniyami v razvitiu //Defektologiya. -2005. - №3. – s. 67-75.
7. Nurkeldiyev D.A. Aqli zaif bolalarning maktab ta’limiga nutqiy tayyorgarligini aniqlash metodlari. Ped. fanl. nom....diss. - T., 2001 .



**AKADEMIC JOURNAL OF EDUCATIONAL RESEARCH (AJER)**  
**international scientific journal**  
**2-son**

Nashr qilingan sana: 25.03.2024.  
Shrift: "Times New Roman".

**"ACADEMIC JOURNAL" MCHJ**

Manzil: 700096, Toshkent shahri, Chilozor tumani, Bog'iston ko'chasi, 116/6.  
[www.ajeruz.com](http://www.ajeruz.com), [info@ajeruz.com](mailto:info@ajeruz.com), +998950457172